



O'QITUVCHI faoliyatida qo'llanadigan metodlar va ularning afzalliklari.

To'raqulov Akbar Rustam o'g'li

DTPI Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Karimova Zuxra Anvar qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-

bosqich talabasi

Tel: +998996290208

Bir soatgina olingan bilim bir kechalik ibodatdan yaxshiroq
(Hadis)

Annotatsiya: Shaxsning kamolotini uning intellektual ma'naviy - axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari har bir davrning o'ziga xos jihatlari shuningdek bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun o'qituvchi dars jarayonida ularga yoshiga va ruhiy kamolotiga bo'liq metodlarni qo'llashi lozim.

Kalit so'z: O'qituvchi, metod, ta'lim, tarbiya interfaol metodlar, ilmiy-tadqiqot metodlari

Pedagogika atamasi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratilganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasiga bo'lingan. Barkamol insonni voyaga yetkazish, ularni yaxshilikka chorchash, yomonlikdan qaytarish tarbiya orqali amalga oshiriladi Avloniyning pedagogika haqidagi ta'rifi ham hozirgi zamon ta'rifiga ancha mos keladi. "Tarbiya- Pedagogika" ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir. Shu sababli yurtimizda ta'lim va tarbiya birdek olib boriladi.

O'qituvchi kasbiy faoliyatida asosiy to'rt turdagi metodlardan foydalaniladi. Bular quyidagilar:

1. Ilmiy- tadqiqot metodlari
2. Ta'lim metodlari
3. Tarbiya metodlari
4. Interfaol metodlar.

O'qituvchi dars davomida bu metodlarning barchasidan foydalanib dars o'tadi. Chunki har bir metodning o'z o'rnini mavjud. Masalan, ilmiy-tadqiqot metodlari yangi bilim berishga qaratilgan, ta'lim metodlari ularni rivojlantirishga bilim berishga qaratilgan, tarbiya metodlari ularning darsda qanday o'tirishlari



ko'cha- ko'yda o'zlarini qanday tutishlari o'rgatadigan metod, interfaol metodlar o'quvchilardan o'rgangan bilimlarni qanchalik o'zlashtirgani darsni qanchalik o'rganganligini aniqlovchi metod hisoblanadi. Bu metodlar bir- birini to'ldirib turadi. Metodlar ham o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi. Bular quydagicha:

Ilmiy- tadqiqot metodlari

1. Kuzatish- aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa kutilgan natijaga erishish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni kuzatishda birgina uning bilim salohiyatini emas balki kuzatayotgan o'quvchisining oilaviy sharoiti bilan ham tashishi kerak bo'ladi. Chunki bolalarning fe'l- atvoridagi o'zgarishlarga oilaviy muhit ham juda katta ta'sir ko'rsatadi. Kuzatish bir tomonlama bo'lib qolmasligi maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi oilaviy sharoiti hech qanday bolaga ta'sir qilmay atrof - muhit ham unga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Bunday vaziyatda o'qituvchi o'quvchini trio ulfat boshlashi kerak bo'ladi. Shundagini ko'zlangan natijaga erishiladi.

2. Suhbat- suhbatda savollar aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Savollar aniq, qisqa va ravshan bo'lishi lozim. Balog'at yoshiga yetayotgan o'quvchilarda suhbat metodi ancha samarali hisoblanadi. Chunki bu metod orqali o'quvchining ichki kechinmalarni bilish mumkin. Suhbat samimiy do'stona tarzda tashkil etilishi kerak. Bu yoshdagi bolalar ancha tajang, urishqoq, kamgap bo'lib qolishadi. Shu vaqtda unga e'tibor berilmasa har xil holatlar yuzaga kelishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi bunday o'quvchilar bilan alohida suhbat qilishi kerak bo'ladi. Darslarda esa bu metoddan savol- javoblar tartibida ham foydalansa bo'ladi. Suhbat qanchalik samara bersa bu metod o'qituvchiga shunchalik muvaffaqiyat keltiradi.

3. Bolalar ijodini o'rganish va boshqa turlarga bo'linadi. Bolalar ijodini o'rganishda ham o'qituvchi mahorat talab etiladi. Bolalar maktabga borganda boshlang'ich sinf o'qituvchisi ularning dars berishi natijasida o'quvchilarida qanday iste'dodi borligini aniqlaydi. O'quvchilarning ba'zilar rasm chizishga, ba'zilar she'r o'qishga, yana birlari nimalardir yasashga qiziqadi shunday vaqtda o'qituvchi ularning ijodini aniqlab ularni shu kasbga yo'naltirishi kerak bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning yashirin qirralarini topa olsagina u haqiqiy o'quvchiga aylanadi. metodlar ham bir-birini to'ldirib turadi. Keyingi metod bu ta'lim metodi.

"Ta'lim metodi - zamonaviy darajada o'quv- tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagog va o'quvchilarning o'zaro bog'liq faoliyat usullaridir." (V. I. Zagvyazinskiy)



Bundan tashqari yana ko'rina olimlar ham ta'lim metodi haqida o'z fikrlarini aytib o'tgan. Qanday ta'lim bo'lishidan qat'iy nazar: xoh maktab ta'limi, xoh oliy ta'lim bo'lsin barchasida ta'lim metodi eng asosiy metod hisoblanadi. O'qituvchi ta'lim metodi trio tanlay olsagina darsda o'quvchilarni behilangan vaqtda o'ziga qarata olishi mumkin. Ammo, dars bir xillikka asoslangan bo'lsa o'quvchilar darsdan tezda zerikib qolib umuman darsga e'tibor bermaydi. Bu esa bilim sifatining pasayishiga olib keladi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'lim va tarbiya oid shunday fikrlarni keltirib o'tadi. "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz". Bundan ko'zlangan maqsad ta'lim va tarbiya hozirgi texnologiyalari asriga moslashtirishni, o'qituvchilar ta'lim va tarbiya berayotganda zamon talablarga hamohang holda dars o'tishlarni aytib o'tadi. O'qituvchi darsda eng ko'p qo'llaydigan metodlardan yana biri bu tarbiya metodlardir. Tarbiya metodi ta'lim metodi bilan chambarchas bog'liq. Bizning yurtimizda shu sababli ta'lim ham tarbiya birday olib boriladi. Bolalarda tarbiya bo'lmasa unga ta'lim berish juda qiyin vazifa. Shu sababli o'qituvchi eng avvalo tarbiya metodidan foydalanadi. O'quvchilarga tarbiya berishda ularning yoshi hisobga olinadi. Shunga qarab tarbiya metodi ham ikki xil usulda olib boriladi. "Kuchli harakatlantiruvchi" va "ayaydigan". Ta'lim va tarbiya berishga vaqt qisqa qolgan bo'lsa birinchi usuldan, ancha vaqt bo'lsa ikkinchi usuldan foydalaniladi.

Tarbiya metodi- barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan. Bunday tashqari ularni to'g'ri tanlash o'quvchilarning o'z - o'zini tarbiyalash faolligiga yordam beradi. O'qituvchi esa tarbiya metodi qo'llashda ham e'tiborli bo'lishi lozim. Chunki bu metodni noto'g'ri qo'llash bolalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari tarbiya berishda rag'batlantirib ham turish kerak. Bu ham tarbiya metodidan samarali usullaridan biridir.

So'nggi metod turi bu interfaol metodlardir. Bu metodlar orqali bolalarning darsni qanchalik o'zlashtirganligini aniqlash mumkin. Bundan tashqari bolalarni begilangan vaqt ichida zeriktirmaslikka ham yordam beradi. O'quvchilar o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun ham shunday metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interfaol metodni o'qituvchi o'zi ham dars jarayonida yaratishi mumkin. Shu sababli interfaol metodlar ning turlari juda ko'p. Masalan: BBB, Baliq skeleti, aqliy hujum A4 format, 123 kabi bir qancha metodlarga bo'linadi. Bu metodlarning soni aniq emas. Dars o'tilishi natijasida yangidan yangi interfaol



metodlar paydo bo'laveradi. Bu o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Bu metodlarni qo'llash juda qadimdan boshlangan bo'lsa ham hali hanuz o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Ulardan haligacha pedagog- o'qituvchilar foydalanib kelishmoqda . Bu metodlar bir- bir bilan bog'liq holda foydalaniladi. Shu sababli to'g'ri va aniq qo'llanilsa ko'zlangan natijaga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanishi / Metodik qo'llanma Tuzuvchilar: D. Ro'ziyeva, M. Usmonboyeva, Z. Xoliqova Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti-2013 -136 bet.

2.Akbar, T. (2022). Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(8), 160-167.

3.Rustamovich, T. R. A. (2021). Islom Ta'limotlarda Shaxs Ma'naviyati Masalalari. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 186-190.